«FSMU» texnologiyasi.

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya o‘quvchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- O‘quvchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- Har bir o‘quvchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

- Har bir o‘quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog‘ozlardagi FSMU ning to‘rt bosqichini taklif etilgan xulosa yoki g‘oyaga nisbatan o‘z mustaqil mulohazalarini bo‘yicha yozma bayon etgan holda to‘ldiradi;
- Navbatdagi bosqichlarda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar va har bir o‘quvchi o‘zi yozgan FSMU bilan guruh a’zolarini tanishtiradi;
- Guruh a’zolari barcha fikrlarni o‘rganib, ularni umumlashtiradilar va o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar;

O‘qituvchi tomonidan barcha taqdimotlar umumlashtiriladi, kerakli xulosalar shakllantiriladi va trening yakunlanadi.

Mazkur texnologiyadan foydalanish o‘quvchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Masalan: geografiya fanidan «Suv hayot manbaidir», matematika fanidan «Matematika aql gimnastikasi», tarix fanidan “Amir Temur kuchli markazlashgan davlat asoschisi” kabi mavzularda «FSMU» o‘tkazish mumkin.

Namuna:

Xarita - geografiyaning ikkinchi tili!

Fikr	Ha
Sabab	Xarita geografiyani o‘rganishda juda muhim o‘rin tutadi, chunki, u orqali o‘quvchilarda muayyan davlat haqida aniq obrazli tasavur shakllantiriladi, shuningdek, xarita fan uchun muhim ko‘rgazmali qurol hisoblanadi.
Misol	Biror-bir davlat va uning hududiy tuzilishi haqida aniq ma’lumot olmoqchi bo‘lsak xarita bu jarayonda eng samarali o‘qitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.
Umumlashtirish	Xaritasiz geografiya fanini va dunyoni tasavvur etib bo‘lmaydi.